

**XALQARO QISHLOQ XO‘JALIGI UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI PhD.08/2025.27.12.I.15.01
RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDA BIR MARTALIK
ILMIY KENGASH**

**OZIQ-OVQAT VA QISHLOQ XO‘JALIGI SOHASIDA STRATEGIK
RIVOJLANISH VA TADQIQOTLAR XALQARO MARKAZI**

TO‘RAYEVA MUYASSAR RASUL QIZI

**SABZAVOT MAHSULOTLARI YETISHTIRISHNI MOLIYALASHTIRISH
MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.04 – Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti
08.00.07– Moliya, pul muomalasi va kredit

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Content of the Dissertation Abstract of doctor of philosophy (PhD)

To'rayeva Muyassar Rasul qizi

Sabzavot mahsulotlari yetishtirishni moliyalashtirish mexanizmini
takomillashtirish 3

Тураева Муяссар Расул кизи

Совершенствование механизма финансирования производства овощной
продукции 25

Torayeva Muyassar Rasul qizi

Improving the Financing Mechanism for Vegetable Production 49

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ
List of published works..... 53

**XALQARO QISHLOQ XO‘JALIGI UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI PhD.08/2025.27.12.I.15.01
RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDA BIR MARTALIK
ILMIY KENGASH**

**OZIQ-OVQAT VA QISHLOQ XO‘JALIGI SOHASIDA STRATEGIK
RIVOJLANISH VA TADQIQOTLAR XALQARO MARKAZI**

TO‘RAYEVA MUYASSAR RASUL QIZI

**SABZAVOT MAHSULOTLARI YETISHTIRISHNI
MOLIYALASHTIRISH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.04 – Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti
08.00.07– Moliya, pul muomalasi va kredit

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy Attestatsiya komissiyasida B2025.4.PhD/Iqt.2128-raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya ishi Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi sohasida strategik rivojlanish va tadqiqotlar xalqaro markazida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb – sahifasida (www.iau.uz) va "Ziyonet" Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Rustamova Iroda Baxramjanovna,
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Rustamov Maqsud Suvonqulovich,
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Daniyarova Feruza Bahriddinovna,
iqtisodiyot fanlari falsafa doktori (PhD)

Yetakchi tashkilot

Guliston davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Xalqaro qishloq xo'jaligi universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.08/2025.27.12.I.15.01 raqamli Ilmiy Kengashning 2026 yil "15" 09 soat 15:00 da majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 111200. Toshkent viloyati, Qibray tumani, Universitet ko'chasi, 2-uy, tel.: +998 55 517-00-71, e-mail: scientificcouncil@iau.uz)

Dissertatsiya bilan Xalqaro qishloq xo'jaligi universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (2 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 111200. Toshkent viloyati, Qibray tumani, Universitet ko'chasi, 2-uy, tel.: +998 55 517-00-71, e-mail: scientificcouncil@iau.uz)

Dissertatsiya avtoreferati 2026 yil "15" 09 kuni tarqatiladi.

(2026 yil "15" 09 daqi 10 raqamli reyestr bayonnnomasi)


E.I.Ergashev,
Bir inson uchun ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash raisi, iqtisodiyot fanlari
doktori, professor
A.E.Primov,
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
koini, iqtisodiyot fanlari bo'yicha
falsafa doktori, dotsent
E.I.Ergashev,
RSBH mintaqalik ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar
raisi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti global oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, aholi o'sishi va resurslar cheklanganligi sharoitida strategik ahamiyatga ega tarmoq sifatida rivojlanmoqda. Ayniqsa, bog'dorchilik va sabzavotchilik tarmoqlari yuqori qo'shilgan qiymat yaratishi, eksport salohiyati hamda aholini sifatli oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlashdagi o'rni bilan ajralib turadi. Jahon amaliyotida qishloq xo'jaligini moliyalashtirish bozorining kengayib borayotgani, xususan, uning hajmi 2024-yilda 183,21 mlrd AQSh dollarini tashkil etgani mazkur sohada moliyaviy resurslarga bo'lgan talabning ortib borayotganini ko'rsatadi¹. Shu bilan birga, qishloq xo'jaligini moliyalashtirish tizimida resurslarni taqsimlash samaradorligi, moliyaviy instrumentlarning cheklanganligi va an'anaviy kreditlash mexanizmlarining ustunligi kabi muammolar saqlanib qolmoqda. Natijada, ayniqsa sabzavot mahsulotlarini yetishtirishda moliyaviy resurslardan samarali foydalanish va ularni diversifikatsiya qilish masalasi tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu sharoitda an'anaviy moliyalashtirish usullari bilan bir qatorda zamonaviy moliyaviy instrumentlarni joriy etish, moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish hamda tarmoqning barqaror rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish zarurati ortib bormoqda.

Global iqlim o'zgarishi, resurslar cheklanganligi va oziq-ovqat xavfsizligi muammolarining keskinlashuvi sharoitida dunyoning yetakchi ilmiy markazlari va xalqaro tashkilotlari tomonidan sabzavotchilik tarmog'ini barqaror rivojlantirish va uni samarali moliyalashtirish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xalqaro tadqiqotlarda qishloq xo'jaligida moliyaviy resurslarga kirish imkoniyatini kengaytirish, ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish hamda yuqori qo'shilgan qiymatli tarmoqlarni qo'llab-quvvatlash ustuvor yo'nalish sifatida qayd etilgan. Ilmiy natijalar an'anaviy kreditlashning cheklanganligi sabzavotchilik tarmog'ining barqaror rivojlanishiga to'sqinlik qilishini ko'rsatib, moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya qilish zarurligini asoslaydi. So'nggi yillarda agrar moliyalashtirishni raqamlashtirish, moliyaviy texnologiyalarni joriy etish, kichik fermer xo'jaliklarining moliyaviy resurslarga kirish imkoniyatini kengaytirish, shuningdek, klaster, sug'urta va kraudfanding mexanizmlarini rivojlantirish ustuvor yo'nalishlar sifatida shakllanmoqda, bu esa sabzavot mahsulotlarini yetishtirishni moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha tadqiqotlar ham shular jumlasidandir.

O'zbekistonda sabzavotchilik tarmog'ini rivojlantirishga qaratilgan iqtisodiy islohotlar izchil amalga oshirilib, ularning ijobiy natijalari namoyon bo'lmoqda. Xususan, tarmoqda ishlab chiqarish hajmini oshirish, qo'shilgan qiymat zanjirlarini shakllantirish va tashqi bozorlarga chiqishni kengaytirish orqali eksport salohiyati sezilarli darajada yuksalmoqda. Biroq, amaliyotda sabzavotchilikni moliyalashtirish tizimida qator muammolar saqlanib qolmoqda, jumladan, imtiyozli kreditlar ulushi-ning yuqoriligi, banklar resurs bazasining barqaror emasligi va ishlab chiqarishning mavsumiy xususiyatga egaligi moliyaviy resurslardan samarali foydalanishni chekla-

¹ <https://www.datamintelligence.com/research-report/farming-and-agriculture-finance-market>

moqda. Natijada tarmoqda investitsiya jalb qilish, moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya qilish va zamonaviy moliyaviy mexanizmlarni joriy etishga bo'lgan ehtiyoj ortib bormoqda. Shu nuqtai nazardan mamlakatimizda qishloq xo'jaligi, jumladan, sabzavotchilik tarmog'ini rivojlantirish, uni moliyaviy qo'llab-quvvatlash, zamonaviy moliyalashtirish va sug'urtalash mexanizmlarini takomillashtirish yo'nalishlariga alohida ustuvorlik berilmoqda². Bu esa sabzavot mahsulotlarini yetishtirishni moliyalashtirish mexanizmlarini ilmiy asosda takomillashtirishga qaratilgan tadqiqotlarni amalga oshirish zarurligini belgilaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktabrdagi PF-5853-son "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi, 2025-yil 21-noyabrdagi PF-224-son "Agrar sohani davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmonlari, 2022-yil 27-apreldagi PQ-225-son "Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish xarajatlarini moliyalashtirish va ularni xarid qilish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2023-yil 5 apreldagi PQ-113-son "2023-yilda qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish, qayta ishlashni kengaytirish va qo'llab-quvvatlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2025-yil 8-apreldagi PQ-136-son "Qishloq xo'jaligi mahsulotlarining eksport salohiyatini oshirish hamda qayta ishlash zanjirini rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi. Dissertatsiya respublika ilm-fan va texnologiyalari rivojlanishining I. "Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy hamda madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Qishloq xo'jaligini moliyalashtirish hamda sabzavot mahsulotlarini yetishtirishni moliyalashtirish masalalari xorijiy iqtisodchi olimlar tomonidan keng o'rganilgan. Jumladan, J.B.Penson, O.Capps, P.J.Barry, D.H.Vo, T.N.Ngo, S.Vunder³ kabi tadqiqotchilar o'z ilmiy ishlarida agrar sektorni moliyalashtirishning nazariy asoslari, kreditlash mexanizmlari, moliyaviy resurslardan samarali foydalanish hamda qishloq xo'jaligida investitsiya jarayonlarini faollashtirish masalalarini tadqiq etganlar. Ularning ilmiy ishlarida agrar ishlab chiqarishni moliyalashtirishda bozor mexanizmlarini rivojlantirish, moliyaviy institutlar ishtirokini kengaytirish va resurslar taqsimotini takomillashtirish muhim omil sifatida asoslangan.

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 23 oktabrdagi «O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020- 2030 yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi PF-5853-sonli Farmoni. <https://lex.uz/docs/-4567334>

³ Penson, J.B. & Capps, O. (1990). Agricultural Finance. Prentice Hall. dokumen.pub/introduction-to-agricultural-economics-7nbsped-9780134602820-013460282x.html; Barry, P.J. (2001). Agricultural Finance.. https://link.springer.com/chapter/10.1007/978-1-4757-3583-3_17?, Vo D.H., Ngo T.N. Agriculture Finance and Economic Growth in Rural Areas. International Journal of Finance & Banking Studies, 2018. p. 22–31., Wunder, S. (2005). Payments for Environmental Services: Some Nuts and Bolts. CIFOR Occasional Paper No. 42.

Mamlakatimizda ham qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish va ularni moliyalashtirishning ayrim jihatlarini ilmiy jihatdan tadqiq etilgan. Xususan, E.I.Ergashev, A.A.Yadgarov, S.T.Iskandarov, J.R.Qosimov, M.Sh.Xojiboyev, T.X.Farmanov, X.U.Yaqubova, E.X.Botirov⁴ va boshqa olimlar tomonidan agrar ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, moliyaviy resurslardan foydalanishni takomillashtirish, davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmlari va kreditlash tizimini rivojlantirish masalalari tadqiq qilingan.

Shu bilan birga, mavjud ilmiy ishlanmalarda sabzavot mahsulotlarini yetishtirishni moliyalashtirishning o'ziga xos xususiyatlari, xususan, tarmoqning mavsumiyligi, yuqori risk darajasi, qo'shilgan qiymat zanjirlarining uzviyligi hamda moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya qilish masalalari kompleks yondashuv asosida yetarli darajada yoritilmagan. Ayniqsa, zamonaviy talablar nuqtai nazaridan raqamli moliyalashtirish instrumentlari, klaster yondashuvi va innovatsion moliyaviy mexanizmlarni joriy etish masalalari chuqur tadqiq etilmagan. Bu esa sabzavot mahsulotlarini yetishtirishni moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirishga qaratilgan maqsadli ilmiy tadqiqotlar olib borish zarurligini belgilaydi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi bilan bog'liqligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha tadqiqot ishlari Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi sohasida strategik rivojlanish va tadqiqotlar xalqaro markazining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi sabzavot mahsulotlari yetishtirishni moliyalashtirish mexanizmini takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagidan iborat:

qishloq xo'jaligi, xususan, sabzavot mahsulotlarini yetishtirishni moliyalashtirish mexanizmlarining nazariy asoslari va huquqiy jihatlarini yoritish;

sabzavot mahsulotlarini yetishtirishni moliyalashtirishning xorijiy davlatlar tajribalari o'rganilib, ularni mamlakatimizda joriy etish bo'yicha amaliy takliflar ishlab chiqish;

sabzavot yetishtirishni moliyalashtirish tizimining hozirgi holatini tahlil qilishni va rivojlanish tendensiyalarini aniqlash;

sabzavotchilikda moliyaviy resurslardan foydalanish darajasi va ularga ta'sir etuvchi omillar tahlilini amalga oshirish hamda moliyaviy resurslardan foydalanish indeksini aniqlash;

⁴ Ergashev E.I. Moliyaviy ta'minotni barqarorlashtirish asosida bog'dorchilik va uzumchilik tarmog'ini rivojlantirish: diss. ... i.f.d. T.: – 2020. – 145 b; Yadgarov A.A. Agrosanoat majmui koroxnali faoliyatini sug'urtalash metodologiyasini takomillashtirish. diss. ... i.f.d. T.: – 2023. – 15 b; Iskandarov S.T. Himoyalangan yer sabzavotchiligini rivojlantirishning iqtisodiy asoslarini takomillashtirish: avt. diss. ... i.f.f.d (Phd). T.: – 2018. – 230 b; Qosimov J.R. Meva-sabzavot mahsulotlari kooperatsiyasining tashkiliy-iqtisodiy asoslarini takomillashtirish (Qashqadaryo viloyati misolida): avt. diss. ... i.f.f.d (Phd). Nukus. – 2023 – 13 b.; Tojiev S. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida agrar tuzilmalarning iqtisodiy-moliyaviy munosabatlari: avt. diss. ... i.f.n. T.: O'zBIITI. 2005. 7 b.; Xojiboyev M.Sh. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida fermer va dehqon xo'jaliklarini kreditlash tizimini takomillashtirish. avt. diss. ... i.f.n. T.: – 2010 – 10 b.; Farmanov T.X. Fermer xo'jaliklarini rivojlantirishning ustivor yo'nalishlari: avt. diss. ... i.f.n. T.: O'zBIITI, – 2006. – 36 b.; Yaqubova X.U. Dehqon xo'jaliklarini kreditlash tizimini takomillashtirish: avt. diss. ... i.f.f.d (Phd). T.: – 2025 – 15 b.; Botirov E.X. Meva-sabzavotchilik klasterlarini moliyalashtirish mexanizmini takomillashtirish: avt. diss. ... i.f.f.d (Phd). – T.: 2024, – 16 b.

sabzavotchilikda ishlab chiqarish hajmiga ta'sir etuvchi omillarni ekonometrik model asosida baholash;

ekonometrik model asosida yetishtiriladigan sabzavot mahsulotlari hajmining 2030-yilgacha bo'lgan istiqbolli ko'rsatkichlarini ishlab chiqish;

sabzavot mahsulotlari yetishtirishni moliyalashtirishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash yo'nalishlari hamda moliyalashtirish mexanizmini takomillashtirish bo'yicha amaliy takliflar ishlab chiqish.

Tadqiqot obyekti sifatida respublikada faoliyat yuritayotgan sabzavotchilikka ixtisoslashgan dehqon va fermer xo'jaliklari tanlab olingan. Monografik tadqiqotlar esa Toshkent viloyatining Qibray va Yuqori Chirchiq tumanlarida joylashgan sabzavotchilikka ixtisoslashgan dehqon va fermer xo'jaliklari misolida amalga oshirilgan.

Tadqiqot predmetini sabzavot mahsulotlarini yetishtirishni moliyalashtirish jarayonida yuzaga keladigan tashkiliy-iqtisodiy munosabatlar, jumladan, moliyaviy resurslarni shakllantirish, jalb etish, taqsimlash va ulardan samarali foydalanish hamda ushbu jarayonlarni tartibga solish bilan bog'liq munosabatlar tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida taqqoslama tahlil, tizimli yondashuv, abstrakt fikrlash, ijtimoiy so'rovnoma, statistik va ekonometrik modellash tirish usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

uslubiy yondashuvga ko'ra, "sabzavot mahsulotlarini yetishtirishni moliyalashtirish" tushunchasining mohiyati sabzavotchilikka ixtisoslashgan xo'jaliklarning tashkiliy asoslari, boshqaruv tuzilmasi, moliyaviy resurslardan foydalanish mexanizmlari va iqtisodiy holatini kompleks hisobga olgan holda takomillashtirilgan;

qishloq xo'jaligida sabzavot mahsulotlarini yetishtirishda moliyaviy resurslardan foydalanish holatini baholashda "moliyaviy resurslardan foydalanish indeksi" usuli taklif etilgan va past ($0 \leq MI \leq 0,35$), o'rta ($0,36 \leq MI \leq 0,75$), yuqori ($0,76 \leq MI \leq 1$) kabi mezonlar ishlab chiqilgan;

istiqbolda sabzavotchilik tarmog'ini rivojlantirishga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni e'tiborga olgan holda sabzavot mahsulotlari hajmining 2030-yilga qadar prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan;

kraudfanding (crowdfunding) platformasi orqali sabzavot mahsulotlarini yetishtiruvchilarni moliyalashtirishga qaratilgan, onlayn rejimda ishlovchi namunaviy dasturiy ta'minot tizimi ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

sabzavotchilik xo'jaliklari kesimidagi panel ma'lumotlari va moliyaviy resurslardan foydalanish indeksi aniqlangan va Toshkent viloyati Qibray va Yuqori Chirchiq tumanlari uchun moliyaviy resurslardan foydalanish indeksi, mos ravishda 0,49 va 0,41 ko'rsatkichni tashkil etganligi, ushbu tumanlar moliyaviy resurslardan foydalanish indeksi mezonlari bo'yicha o'rta darajada ekanligi tahlil natijalari bo'yicha ilmiy asoslangan;

sabzavotchilik tarmog'ida moliyaviy resurslardan foydalanish asosida sabzavot ishlab chiqarish hajmi 2020-yildagi 10 431,4 ming tonnadan 2030-yilga borib 15 420,1 ming tonnaga yetishi, ya'ni 1,5 baravarga oshishi prognoz qilingan;

kraudfanding (crowdfunding) platforma orqali sabzavot mahsulotlarini yetishtiruvchilarni mahsulot yetishtirishni moliyalashtirishi uchun onlayn rejimda ishlovchi namunaviy dasturiy ta'minot tizimi ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalari va xulosalarining ishonchliligi mavzuga oid xorijiy va mahalliy olimlarning ilmiy-nazariy ishlanmalariga tayanilganligi, rasmiy statistik ma'lumotlar manbalaridan, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi va Toshkent viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlaridan foydalanilganligi, ularni taqqoslash va tahlil qilish, iqtisodiy-matematik modellash usullari qo'llanilganligi hamda tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilganligi bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Ushbu tadqiqotda sabzavotchilik tarmog'ini barqaror rivojlantirishga xizmat qiluvchi moliyaviy, tashkiliy va institutsional mexanizmlar ilmiy asosda tahlil qilindi hamda ularni takomillashtirish bo'yicha konseptual yondashuv ishlab chiqildi. Xususan, sabzavot mahsulotlarini yetishtiruvchilar uchun Kraudfanding platforma orqali amalga oshirilishi, sabzavot mahsulotlarini yetishtirishni moliyalashtirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish, sabzavot mahsulotlari yalpi hosilini va jalb etilgan moliyaviy resurslarni ekonometrik model orqali istiqbollarini belgilash, sabzavot mahsulotlarini yetishtirishni moliyalashtirish bo'yicha ishlab chiqilgan takliflar iqtisodiy munosabatlarni ilmiy asoslashda muhim o'rin tutadi.

Shuningdek, ilmiy-amaliy jihatdan asoslangan taklif va tavsiyalardan oliy va o'rta maxsus ta'lim muassasalari talabalari uchun tarmoqqa oid "Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti", "Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish iqtisodiyoti" kabi fanlardan o'quv dasturlari va o'quv, o'quv-uslubiy ishlarni tayyorlashda keng foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Sabzavot mahsulotlarini yetishtirishning moliyalashtirish mexanizmini takomillashtirish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

"Sabzavot mahsulotlarini yetishtirishni moliyalashtirish" tushunchasini takomillashtirish bo'yicha taklif 60310100 – Iqtisodiyot (qishloq xo'jaligida) ta'lim yo'nalishi talabalari uchun mo'ljallangan "Qishloq xo'jalik ishlab chiqarish iqtisodiyoti (Agricultural Production Economics)" darsligida foydalanilgan (Toshkent davlat agrar universitetining 2026-yil 20-yanvardagi 1-9-6/15-son buyrug'i, 15/1-ro'yxat raqami). Natijada ushbu tushunchani kengroq va tizimli talqin etish asosida talabalarda sabzavotchilik tarmog'ini moliyalashtirishga oid nazariy bilimlar va amaliy ko'nikmalarni shakllantirish imkoniyati kengaygan;

sabzavot mahsulotlarini yetishtirishda moliyaviy resurslardan foydalanish samaradorligini baholash bo'yicha "moliyaviy resurslardan foydalanish indeksi"ni qo'llashga doir uslubiy yondashuv O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi huzuridagi Qishloq xo'jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazi tizimi tashkilotlari tomonidan amaliyotga joriy etilgan (Qishloq xo'jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazining 2025-yil 11-noyabrdagi 05/06-03-505-son ma'lumotnomasi). Natijada Toshkent viloyati Qibray va Yuqori Chirchiq tumanlarida moliyaviy resurslardan foydalanish darajasini miqdoriy baholash imkoniyati yaratilgan

hamda ularning mos ravishda o'rta darajada ekanligi ilmiy asoslangan. Bu esa moliyaviy resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish bo'yicha qarorlar qabul qilish imkoniyatini kengaytirgan;

sabzavot mahsulotlari yalpi hosilining 2030-yilgacha bo'lgan prognoz parametrlarini ishlab chiqish bo'yicha takliflar O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi huzuridagi Qishloq xo'jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazi tomonidan amaliyotga joriy etilgan (Qishloq xo'jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazining 2025-yil 11-noyabrdagi 05/06-03-505-son ma'lumotnomasi). Ekonometrik model asosida ishlab chiqilgan prognoz natijalariga ko'ra, O'zbekiston Respublikasida sabzavot mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining 2030-yilga borib 2020-yilga nisbatan 1,5 barobarga oshishi ilmiy asoslangan;

kraudfanding platformasi orqali sabzavot mahsulotlarini yetishtiruvchilarni moliyalashtirishga qaratilgan onlayn dasturiy ta'minot tizimini joriy etish bo'yicha taklif O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi huzuridagi Qishloq xo'jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazi tizimi tashkilotlari tomonidan amaliyotga joriy etilgan (Qishloq xo'jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazining 2025-yil 11-noyabrdagi 05/06-03-505-son ma'lumotnomasi). Natijada sabzavot yetishtiruvchilarni moliyalashtirishda qo'shimcha moliyaviy manbalarni jalb etish, investitsiya jarayonlarini faollashtirish va moliyalashtirish mexanizmlarining ochiqqligi hamda shaffofligini ta'minlash imkoniyati yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot asosiy natijalari 2 ta xalqaro va 2 ta respublika darajasidagi ilmiy-amaliy konferensiyalarida muhokama qilingan va ma'qullangan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya ishi mavzusi bo'yicha jami 10 ta ilmiy ish, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish bo'yicha tavsiya etilgan ilmiy nashrlarida 6 ta ilmiy maqola (5 ta respublika va 1 ta xorijiy jurnallarda), ilmiy-amaliy konferensiyalar to'plamlarida 4 ta ma'ruza tezislari chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya ishi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, tarkibiga 27 ta statistik, tahliliy, hisob-kitob jadvallari va 14 ta rasm, 3 ta ilovani o'z ichiga olgan holda 123 sahifada bayon etilgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslangan, maqsadi, vazifalari, obyekti va predmeti shakllantirilgan, respublikada fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi ko'rsatilgan, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, ularning amaliyotga joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishni moliyalashtirishning nazariy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishda moliyalashtirish mexanizmining nazariy asoslari, O'zbekistonda sabzavot mahsulotlarini yetishtirishni moliyalashtirishning huquqiy jihatlari,

sabzavot mahsulotlarini yetishtirishni moliyalashtirishning xorijiy davlatlar tajribasi va ularni mamlakatimizda qo'llash imkoniyatlari yuzasidan ilmiy xulosalar ishlab chiqilgan.

Qishloq xo'jaligi sohasini moliyalashtirish faqat ishlab chiqarish jarayonini qo'llab-quvvatlash bilan cheklanmay, balki ushbu yo'nalishni zamonaviy talablar asosida modernizatsiyalash va rivojlantirishga ham qaratilgandir. Bu jarayonda zamonaviy texnologiyalarni qo'llash va yangi ishlab chiqarish mexanizmlarini joriy etish muhim ahamiyatga ega. Moliyalashtirish jarayonida innovatsion yondashuvlardan foydalanish mahsulotlar sifatini oshirish va ishlab chiqarish jarayonini optimallashtirishga imkon yaratadi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish, shu jumladan sabzavot mahsulotlarini yetishtirish jarayoni tabiiy va iqtisodiy xavf-xatarlarga moyil bo'lgani bois, moliyalashtirish uzluksiz va barqaror bo'lishi lozim. Sabzavotchilik tarmog'ida imtiyozli kreditlar, subsidiyalar va lizing kabi moliyaviy instrumentlardan keng foydalanish muhimdir. Bu sabzavotchilik tarmog'ida ishlovchilar uchun qo'shimcha iqtisodiy imkoniyatlar yaratib, ularning moddiy-texnik bazasini mustahkamlashga yordam beradi.

Xorijiy va mahalliy olimlarning moliyalashtirish bo'yicha tushunchalar tahlil qilindi va mualliflik talqini shakllantirildi. Shu nuqtayi nazaridan bizning fikrimizcha sabzavot mahsulotlarini yetishtirishni moliyalashtirish bu moliyaviy resurslar (o'z mablag'lari, subsidiyalar, kreditlar, grantlar va b.)ning aniq maqsadli va o'z vaqtida sarflanishi hamda mahsulot yetishtirishning barcha bosqichlaridagi xarajatlar, xatarlar va kutilayotgan natijalarni to'liq hisobga olgan holda mahsulot yetishtirish faoliyatini amalga oshirishga qaratilgan iqtisodiy jarayon.

Sabzavot mahsulotlarini yetishtirishni moliyalashtirish – bu sabzavot mahsulotlari ishlab chiqarish maqsadida moliyaviy mablag'lardan foydalanish orqali ishlab chiqarish xarajatlari va kutilayotgan iqtisodiy samaradorlikni ta'minlashga qaratilgan, resurslar va natijalar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni ifodalovchi iqtisodiy jarayondir.

Sabzavotchilik tarmog'ida moliyalashtirishni samarali tashkil etish iqtisodiy barqarorlikka va tarmoqning barqaror rivojlanishiga erishishning muhim shartlaridan biridir. Bu jarayonda moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya qilish, ya'ni davlat subsidiyalari, xususiy investitsiyalar, tijorat banklari kreditlari va xalqaro moliya institutlarining mablag'laridan oqilona foydalanish muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, moliyalashtirish mexanizmlari fermerlar va korxonalarining ehtiyojlariga mos ravishda imtiyozli shartlarda tashkil qilinishi kerak. Zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, infratuzilmani rivojlantirish va ekologik barqarorlikni ta'minlash uchun ajratiladigan moliyaviy resurslar samaradorlikka yo'naltirilishi lozim. Bunda davlat va xususiy sektorning hamkorligi, shuningdek, moliyaviy boshqaruvning shaffofligi va natijadorligi ta'minlanishi tarmoqning uzoq muddatli rivojlanishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi. Shu jumladan sabzavotchilik tarmog'ini davlat tomonidan qo'llab quvvatlash uchun qator subsidiyalar ajratilgan. Aynan sabzavot yetishtirishga ajratiladigan subsidiyalar turli shakllarda amalga oshiriladi (1-jadval).

Sabzavotchilik tarmog'iga ajratiladigan subsidiyalar⁵

Yo'nalish	Miqdor / Ko'rinish
Sug'urta mukofoti subsidiya limitlari	50 % gacha, lekin 1 % dan ortiq emas
Mutaxassisni jalb qilish subsidiya	Har mutaxassisga 1000 USD gacha, 50 % qoplanadi
Sug'urta premium subsidiya	50 % gacha qoplanadi ⁶
Suv tejash (tomchilab sug'orish) texnologiyalari ⁷	
Tomchilab sug'orish tizimlari	8 million so'm/gektar
Yomg'irlatib sug'orish	4 million so'm/gektar
diskret sug'orish	1 million so'm/gektar

Sug'urta mukofotlari bo'yicha qo'llab-quvvatlash tizimi mavjud bo'lib, eksport shartnomasi tuzgan klasterlar sug'urta mukofotining 50 foizini qaytarib olishlari mumkin, biroq bu sug'urta summasining 1 foizidan oshmasligi kerak. Shu bilan birga, malakali mutaxassislarni yollash xarajatlari ham davlat tomonidan qisman qoplanadi: agronom, entomolog va laboratoriya mutaxassislari jalb qilish xarajatlarining 50 foizi subsidiya qilinadi, ammo bir oy uchun har bir mutaxassisga 1000 AQSh dollaridan oshmasligi kerak. Bundan tashqari, BMT Taraqqiyot Dasturi tashabbusi bilan agrosug'urta dasturida hukumat sug'urta premiumining 50 foizini qoplaydi, bu kichik fermerlar uchun katta yengillik yaratadi. Xalqaro moliyaviy institutlar ham sohaga salmoqli hissa qo'shmoqda. Suv tejash texnologiyalarini joriy etishga tomchilab sug'orish tizimi uchun 8 million so'm, yomg'irlatib sug'orish uchun 4 million so'm hamda diskret sug'orish tizimi uchun esa 1 million so'm bazaviy hisoblash miqdorlari ekin maydonining har bir gektari uchun belgilab berilgan. Shuningdek 2025-yil 1-yanvardan: suv tejovchi texnologiyalarni qo'llash uchun subsidiya suv quvurlarining o'lchamidan (diametri) kelib chiqib, 40 ming so'mdan 250 ming so'mgacha belgilanadi.

Davlat tomonidan ajratiladigan subsidiyalar va grantlar fermerlarning asosiy moliyaviy ehtiyojlarini qoplashga qaratilgan bo'lsa-da, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish va bozorga chiqarishning samaradorligini oshirish uchun kengroq yondashuvlar talab qilinadi. Bunda nafaqat ishlab chiqarish quvvatlarini oshirish, balki bozor mexanizmini takomillashtirish, ichki va tashqi talabni rag'batlantirish ham muhimdir. Bunga erishish uchun davlat, avvalo, soliq siyosatini yumshatish orqali fermerlar va qishloq xo'jaligi korxonalariga yengillik yaratishi mumkin (1-rasm).


Soliq yukini kamaytirish korxonalarining moliyaviy barqarorligini oshirishga, ishlab chiqarish hajmini kengaytirishga va moliyaviy resurslarni jalb qilishga xizmat qiladi. Shuningdek, davlat mahsulotlarga bo'lgan talabni oshirish uchun bozor infratuzilmasini rivojlantirish, eksportga qaratilgan qo'llab-quvvatlash dasturlarini

⁵ Me'yoriy hujjatlar asosida muallif ishlanmasi.

⁶ <https://www.undp.org/geneva/press-releases/landmark-public-private-insurance-scheme-smallholder-horticulture-farmers-launched-uzbekistan?>

⁷ <https://faolex.fao.org/docs/pdf/uzb196705.pdf> <https://lex.uz/docs/4741322>

amalgama oshirish va qishloq xo'jaligi mahsulotlarining raqobatbardoshligini ta'minlashga qaratilgan choralarni ko'rishi lozim.



1-rasm. Sabzavotchilikni davlat tomonidan tartibga solishning eng muhim shakllarini qamrab oluvchi qo'llab-quvvatlash tizimi⁸

Talabni rag'batlantirish uchun davlat mahsulotlarning ichki bozordagi raqobatbardoshligini oshirish, iste'molchilar uchun ijobiy sharoitlar yaratish va tashqi bozorlarga chiqishda texnik to'siqlarni yengib o'tishga yordam beradigan dasturlarni ishga tushirishi mumkin. Masalan, mahsulotlarni qayta ishlash, saqlash va tashishni qulaylashtiruvchi infratuzilmalarni rivojlantirish orqali ishlab chiqaruvchilarning bozorga kirishi eksport jarayonlaridagi to'siqlarni kamaytirish orqali mahsulotlarning xalqaro bozorlardagi o'rni mustahkamlanadi. Shunday qilib, davlat qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilarini qo'llab-quvvatlashda soliq siyosatini optimallashtirish, talabni oshirish uchun bozor imkoniyatlarini kengaytirish, infratuzilmani rivojlantirish va iste'molchilar uchun qulay muhit yaratish kabi iqtisodiy vositalardan samarali foydalanishi lozim.

Dissertatsiyaning **“Sabzavot mahsulotlarini yetishtirishda moliyalashtirish mexanizmining hozirgi holati va rivojlanish tendensiyalari”** deb nomlangan ikkinchi bobida sabzavotchilik tarmog'ida mahsulot yetishtirishning hozirgi holati va rivojlanish tendensiyalari, sabzavot mahsulotlarini yetishtirishni moliyalashtirishning amaldagi holati hamda tarmoqda moliyaviy resurslardan foydalanish darajasi kompleks tahlil qilingan. Shuningdek, moliyaviy resurslardan foydalanishga ta'sir etuvchi asosiy omillar ekonometrik usullar asosida baholanib, mavjud moliyalashtirish mexanizmlarining samaradorligiga baho berilgan.

⁸ Adabiyotlar tahlili asosida muallif ishlanmasi.

Respublikamiz qishloq xo'jaligi iqtisodiyotining muhim yo'nalishlaridan biri sabzavotchilik tarmog'idir. Ushbu tarmoq mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, aholini ish bilan ta'minlash, eksport salohiyatini oshirish va milliy iqtisodiyotga valyuta tushumlarini jalb etish kabi ko'plab ustuvor maqsadlarni amalga oshirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, sabzavotchilik tarmog'i qishloq hududlarining rivojlanishi va aholi daromadlarini oshirishda muhim o'rin tutadi.

Toshkent viloyatidagi sabzavot mahsulotlari yetishtiruvchi xo'jaliklar bo'yicha mahsulot yetishtirish hajmi 2024-yili 1195,8 ming tonnani tashkil etib, 2020-yilga nisbatan 15,1% ga oshgan. Bunda umumiy hajmdagi eng katta ulushni dehqon va tomorqa xo'jaliklari saqlab qolgan bo'lsa-da, ularning nisbiy salmog'i 80,3% dan 73,1% ga tushgan (2-jadval). Fermer xo'jaliklari esa sabzavot yetishtirish hajmini 138,3 ming tonnadan 124,1 ming tonnaga kamaytirgan bo'lib, ulushi 13,3% dan 10,4% ga pasaygan. Bu holat ushbu toifadagi xo'jaliklarning umumiy ishlab chiqarishdagi ishtiroki zaiflashayotganini ko'rsatadi. Aksincha, qishloq xo'jaligi korxonalari tomonidan yetishtirilgan sabzavot miqdori sezilarli darajada sal kam 300% ga oshgan (65,8 ming tonnadan 197,0 ming tonnaga). Shu bilan birga 2024-yil yanvar-iyul oylarida Toshkent viloyatida oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy qismi bo'lgan 64,4 mln. AQSH dollari qiymatidagi sabzavot eksport qilindi.⁹

2-jadval

Toshkent viloyatida sabzavot mahsulotlari yetishtirish hajmining xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi (ming tonna)¹⁰

Ko'rsatkichlar	Yillar					2024 yilda 2020 yilga nisbatan, % da
	2020	2021	2022	2023	2024	
Jami yetishtirilgan sabzavot miqdori:	1038,9	1039,6	1101,5	1154,7	1195,8	115,1
1). Fermer xo'jaliklarida	138,3	135,8	135,6	134,9	124,1	89,7
Salmog'i, (%)	13,3	13,1	12,3	11,7	10,4	-3,1 band
2). Dehqon va tomorqa xo'jaliklarida	834,6	858,5	871,2	837,2	874,7	104,8
Salmog'i, (%)	80,4	82,6	79,1	72,5	73,1	-3,0 band
3). Qishloq xo'jaligi korxonalarida	65,8	45,3	94,8	181,9	197,0	299,4
Salmog'i, (%)	6,3	4,3	8,5	15,8	16,5	+6,1 band

Ularning umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi 9,7% dan 15,8% ga oshib, +6,1 bandni tashkil etdi. Bu esa sohaga yirik ishlab chiqaruvchilarning faolroq kirib kelayotganidan dalolat beradi. Shu orqali sabzavotchilikda sanoatlashuv darajasi ortib borayotganini ko'rish mumkin.

Aholi va tadbirkorlik subyektlarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash maqsadlariga ajratilgan jami kreditlar miqdori yillar kesimida o'sish tendensiyasiga ega bo'lib

⁹ <https://www.toshvilstat.uz/uz/matbuot-markazi/qo-mita-yangiliklar/15346-viloyatimizda-qancha-meva-sabzavotlar-eksporti-amalga-oshirildi>

¹⁰ Toshkent viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

bu orqali aholining hamda tarmoqlarning kredit olishga bo‘lgan ehtiyojlari 2021 yilga nisbatan 2024-yilga kelib qariyb 2,5 baravarga oshganining yaqqol dalili bo‘lib xizmat qiladi. Jumladan qishloq xo‘jaligiga ajratilgan kreditlar miqdorida 2023-yilga kelib keskin kamayishni hamda 2022-yilda esa yuqori o‘shishni kuzatishimiz mumkin (3-jadval).

3-jadval

Qishloq xo‘jaligiga ajratilgan kreditlar miqdori dinamikasi¹¹

Ko‘rsatkichlar	Yillar				
	2020	2021	2022	2023	2024
Umumiy kreditlar, mlrd. so‘m	128200	166390	203000	251400	287100
Qishloq xo‘jaligi sohasiga, %	8,1	8,9	11,6	6	7,1
Qishloq xo‘jaligiga ajratilgan imtiyozli kreditlar, mlrd. so‘m	6100	8600	6300	3400	3600
Issiqxona tashkil etish uchun, mlrd. so‘m	1900	1200	2700	1100	1500
Meva-sabzavot va bog‘dorchilik uchun, mlrd. so‘m	2600*	1200	796	605	518

Ajratilgan imtiyozli kreditlar hajmi esa kamayish xususiyatiga ega. Eng ko‘p pasayish meva-sabzavotchilik va bog‘dorchilik uchun ajratilgan kreditlar hajmida ko‘rinib, 2024-yilga kelib 2021-yilga nisbatan 20 foizni tashkil qilgan. Umuman olganda yillar kesimida meva-sabzavotchilik ajratiladigan imtiyozli kreditlar hajmi keskin kamayishi mahsulot yetishtiruvchilarning boshqa moliyaviy manbalarga ehtiyoji ortishini bildiradi. Ushbu manbalarga biz taklif qilayotgan kraudfanding kabi jamoaviy moliyalashtirish platformalarini ham kiritish mumkin.

Agrosanoatni rivojlantirish agentligi tomonidan so‘nggi yillarda ajratilgan subsidiya mablag‘lari 4-jadvalda keltirilgan. 2019-2025-yillar davomida agentlik tomonidan ajratilgan subsidiya mablag‘lari dinamikasi tahlili shuni ko‘rsatadiki, mazkur davrda davlat qo‘llab-quvvatlash siyosati asosan resurslarni tejovchi texnologiyalarni joriy etish va ishlab chiqarish infratuzilmasini mustahkamlashga yo‘naltirilgan bo‘lib, eng katta ulush tomchilatib sug‘orish tizimlariga to‘g‘ri kelgan.

Xususan, 2019-yilda ushbu yo‘nalishda 13,9 ming gektar maydon qamrab olinib, 4 193 mln. so‘m subsidiya ajratilgan bo‘lsa, 2020-2021-yillarda tomchilatib sug‘orish maydonlari keskin kengayib, mos ravishda 93,9 ming va 104,5 ming gektarga yetgan, biroq bir gektarga to‘g‘ri keladigan subsidiya miqdori pasayish tendensiyasini namoyon etgan, bu esa mablag‘lardan foydalanish samaradorligini oshirish va texnologiyalarning nisbatan arzonlashuvi bilan izohlanadi. 2022-2023-yillarda tomchilatib sug‘orish bo‘yicha ajratmalar hajmi va qamrov darajasi izchil qisqargan bo‘lib, bu davrda davlat e‘tibori qisman boshqa infratuzilma yo‘nalishlariga, jumladan, quduq va nasos stansiyalariga hamda muqobil energiya manbalariga yo‘naltirilganini ko‘rsatadi. Quduq va nasos stansiyalari uchun ajratilgan subsidiyalar son jihatidan 2022-yilda eng yuqori darajaga yetib (268 ta obyekt), 28 393 mln so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, keyingi yillarda mazkur ko‘rsatkichlar pasayib, 2024-yilda sezilarli qisqarish,

¹¹ Markaziy bank hisobotlari asosida tuzilgan.

2025-yilda esa nisbatan tiklanish kuzatilgan. Muqobil energiya yo‘nalishi 2023-yildan boshlab subsidiyalash tizimiga kiritilib, dastlab kichik hajmda bo‘lsa-da, 2025-yilga kelib ushbu yo‘nalishga ajratilgan mablag‘larning ko‘payishi agrar sohada energiya samaradorligini oshirish va ekologik barqarorlikni ta‘minlashga qaratilgan strategik yondashuv shakllanayotganini anglatadi. Shuningdek, 2022-yildan boshlab “boshqa yo‘nalishlar” bo‘yicha ajratmalar paydo bo‘lib, ayniqsa 2023-yilda 40 868 mln so‘mga yetgani davlat subsidiya siyosatining diversifikatsiyalashayotganini va an‘anaviy sug‘orish texnologiyalaridan tashqari kompleks qo‘llab-quvvatlash mexanizmlariga o‘tilayotganini ko‘rsatadi.

4-jadval

Agrosanoatni rivojlantirish agentligi tomonidan 2019-2025 yillar davomida ajratilgan subsidiya mablag‘lari¹²

Yillar	Ajratilgan subsidiya mablag‘lari, (mln. so‘m)	Tomchilatib sug‘orish tizimlari uchun		Quduq/nasos stansiyalari uchun		Muqobil energiya uchun		boshqa yo‘nalishlar uchun
		gektar	mln. so‘m	soni	mln. so‘m	soni	mln. so‘m	mln. so‘m
2019	13 866	4 193	13 026	7	840			
2020	93 884	12 637	73 604	169	20 280			
2021	104 478	11 678	86 298	152	18 180			
2022	105 682	7 774	57 687	268	28 393			19 602
2023	99 059	4 539	33 501	248	24 639	1	51	40 868
2024	11 558	492	3 705	33	3 636	1	21	4 196
2025	35 889	1 353	16 193	51	4 878	2	196	14 622

Umuman olganda, jadval ma‘lumotlari agrosanoatni rivojlantirishda subsidiyalar hajmining yillar kesimida notekis taqsimlanganini, biroq ularning asosiy strategik maqsadi suv tanqisligi sharoitida intensiv texnologiyalarni joriy etish, infratuzilmani modernizatsiya qilish va uzoq muddatda ishlab chiqarish samaradorligini oshirishdan iborat ekanini ilmiy-iqtisodiy jihatdan tasdiqlaydi.

Tadqiqot ishida Toshkent viloyati misolida sabzavotchilik fermer xo‘jaliklarida moliyaviy resurslardan foydalanish darajasi hamda unga ta‘sir etuvchi omillar kompleks tarzda o‘rganildi. Bevosita o‘tkazilgan anketa-so‘rovnomalar asosida Toshkent viloyatidagi jami 200 ta fermer xo‘jaligidan ma‘lumotlar to‘plandi. Ushbu tadqiqotda sabzavotchilik fermer xo‘jaliklarining moliyaviy resurslardan foydalanish darajasi hamda mahsulot yetishtirish jarayonida unga ta‘sir etuvchi asosiy omillar tizimli ravishda tahlil qilindi.

So‘rovnoma ma‘lumotlari asosida sabzavotchilik xo‘jaliklarida moliyaviy resurslarga bo‘lgan talabning mavjudligi hamda ushbu resurslarning qaysi turlariga talab yuqoriligi kabi tadqiqotning asosiy mazmunini ochib beruvchi savollar ham o‘rganildi. Olingan natijalar Toshkent viloyatidagi sabzavotchilikka ixtisoslashgan fermer xo‘jaliklarida moliyaviy resurslarga qiziqish mavjudligini hamda ko‘pchilik fermer xo‘jaliklari sabzavot mahsulotlarini yetishtirish jarayonida moliyaviy resurslardan faol foydalanayotganligini ko‘rsatdi.

¹² Qishloq xo‘jaligi vazirligi ma‘lumotlari asosida

Shuningdek, anketa-so‘rovnoma ma’lumotlari asosida sabzavotchilik fermer xo‘jaliklarida moliyaviy resurslardan foydalanish darajasini baholash maqsadida “Moliyaviy resurslardan foydalanish indeksi”ni aniqlash usuli taklif etildi.

Moliyaviy resurslardan foydalanish indeksini hisoblash matematik formulasi quyidagicha:

$$MI_i = \frac{1}{n} \sum_{j=1}^n f_{ij} \quad (1)$$


bu yerda, MI_i – moliyaviy resurslardan foydalanish indeksi, n – so‘rovnoma natijasi asosida olingan ko‘rsatkichlar soni, j – o‘zgaruvchi tartib raqami, i – hudud birligi, f_{ij} – i -hududdagi j -ko‘rsatkichning normallashtirilgan qiymati. Bunda, berilgan moliyaviy resurslardan foydalanish indeksi 0 va 1 oralig‘idagi intervalda o‘lchanadi.

1-formuladan kelib chiqib, Stata-15 statistik ma’lumotlarni hisoblash dasturidan foydalangan holda amalga oshirildi. Mazkur hisob-kitob jarayonida sabzavotchilikka ixtisoslashgan fermer xo‘jaliklarida moliyaviy resurslardan foydalanish darajasini bevosita aks ettiruvchi asosiy indikatorlar tanlab olindi hamda ular asosida indeks shakllantirildi. Moliyaviy resurslardan foydalanish indeksi 0 va 1 oralig‘ida chegaralanadi. Ya’ni indeks qiymati 0 ga yaqinlashgan sari moliyaviy resurslardan foydalanish darajasi past, aksincha 1 ga yaqinlashgan sari ushbu ko‘rsatkich yuqori darajada ekanligini anglatadi.

Shu bois, ushbu ishlab chiqilgan mezonlarni quyidagicha izohlashga harakat qildik: past $0 \leq MI \leq 0,35$; o‘rta $0,36 \leq MI \leq 0,75$; yuqori $0,76 \leq MI \leq 1$.

Bu yerda, MI – moliyaviy resurslardan foydalanish indeksi.

Ushbu indeks fermer xo‘jaliklarining moliyaviy resurslardan foydalanish darajasini baholash va hududlar kesimida taqqoslash imkonini beruvchi muhim integral ko‘rsatkich hisoblanadi. Moliyaviy resurslardan foydalanish indeksini past, o‘rta va yuqori mezonlari bo‘yicha natijalari tumanlar kesimida 2-rasmda keltirilgan.



2-rasm. Moliyaviy resurslardan foydalanish indeksining tumanlar kesimida past, o‘rta va yuqori mezonlari bo‘yicha natijalari¹³

O‘tkazilgan hisob-kitob natijalariga ko‘ra, tanlangan indikatorlar asosida sabzavotchilik fermer xo‘jaliklarining moliyaviy resurslardan foydalanish darajasi hududlar kesimida farqlanishi kuzatildi. Jumladan, Toshkent viloyatining Qibray tumanida moliyaviy resurslardan foydalanish indeksi 0,49 ni, Yuqori Chirchiq

¹³ So‘rovnoma ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

tumanida esa 0,41 ni tashkil etganligi aniqlandi. Ushbu natijalar har ikkala hududda ham moliyaviy resurslardan foydalanish darajasi o'rta holatda shakllanganligini ko'rsatadi. Shuningdek, tahlil natijalari fermer xo'jaliklarining ma'lum qismida moliyaviy resurslardan foydalanish darajasi nisbatan yuqori bo'lsa-da, aksariyat xo'jaliklarda moliyaviy resurslarni jalb etish va ulardan samarali foydalanish imkoniyatlari hali to'liq shakllanmaganligini ko'rsatdi. Bu esa sabzavotchilik tarmog'ida moliyaviy resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha iqtisodiy va tashkiliy choralarni ishlab chiqish zarurligini anglatadi.

Erksiz o'zgaruvchi – ya'ni, moliyaviy resurslardan foydalanish holatiga ta'sir etuvchi bir qator erkli o'zgaruvchilar, jumladan fermer xo'jaliklarining yoshi, ma'lumoti, tajribasi, moliyaviy barqarorligi va boshqa omillar so'rovnoma ma'lumotlari asosida ekonometrik jihatdan tahlil qilindi.

Mavjud erksiz va erkli o'zgaruvchi ma'lumotlar asosida fermer xo'jaliklarida moliyaviy resurslardan foydalanish ehtimoli Probit modeli yordamida baholandi va natijalar 5-jadvalda keltirildi.

5-jadval

Tarmoqda moliyaviy resurslarni qo'llashga ta'sir etuvchi omillar marjinal ta'sirlari ko'rsatkichlari¹⁴

Omillar	Moliyaviy resurslardan foydalanayotgan fermer xo'jaliklari
Yoshi	0,0004** (0,026)
Ma'lumoti	0,028*** (0,000)
Tajribasi	0,0046*** (0,002)
Umumiy yer maydoni	-0,0013** (0,010)
Boshqa faoliyatdan oladigan daromadi	0,097** (0,032)
Jamg'arma mablag' mavjudligi	0,0038** (0,012)
Yerning unumdorligi	0,002* (0,047)
Moliyaviy xizmatlardan foydalanish darajasi	0,062*** (0,018)
Moliyaviy barqarorligi	0,139*** (0,001)
Tavakkalchilikka moyilligi	0,0043** (0,024)
Investitsiyalardan xabardorligi	0,171*** (0,001)
Pseudo R2	0,874
Chi2 (p-value)	305,62 (<0000)
N	200

* $r < 0.1$, ** $r < 0.05$, *** $r < 0.01$, mos ravishda 10%, 5% va 1% statistik muximlilik darajalari. Qavs ichidagilar p-value ahamiyatlilik hisoblanadi.

¹⁴So'rovnoma ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

